

BACHADON MIOMASINI DAVOLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Muallif: Safarova Xurshida Fayzulla qizi
(Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali
.Akusherlik va Ginekologiya yo'nalishi
1-kurs ordinator talabasi).

Safarov Mirzohid Fayzullo o'g'li
(Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali 3-kurs talabasi).

Ilmiy rahbar: Xurmatova Dilorom Adashovna (Akusherlik-ginekologiya va
oilaviy Shifokorlikda ginekologiya) kafedrasini mudiri.

Kirish: Bachadon miomasi (leyomioma) – bachadon mushak qavatidan rivojlanadigan yaxshi sifatli o'sma bo'lib, 30-45 yosh oralig'idagi ayollarda keng tarqalgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har uchinchi ayolda bu patologiya uchraydi. Klassik jarrohlik usullari ko'pincha reproduktiv funksiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, zamonaviy tibbiyotda innovatsion, minimal invaziv va maksimal samaradorlikka ega usullar tobora keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Bachadon miomasini davolashda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlarni baholash, ularning samaradorligi, xavfsizligi va afzalliklarini tahlil qilish.

Material va usullar: Tadqiqotda 2022–2024-yillar oralig'ida bachadon miomasi tashxisi qo'yilgan 68 nafar bemor (o'rtacha yoshi – $36 \pm 4,5$) kuzatildi. Ular 4 guruhga bo'lindi:

- 1-guruh (n=18): HIFU (High-Intensity Focused Ultrasound) – yuqori chastotali fokuslangan ultratovush to'lqinlari yordamida mioma to'qimalarini termal nekrozga uchratish orqali yo'q qilishga asoslangan. Jarayon nurlanishsiz, kesmasiz amalga oshiriladi va bemor bir necha soat ichida uyiga qaytishi mumkin. Bu usul anesteziyasiz yoki engil sedatsiya ostida bajariladi.

- 2-guruh (n=16): UAE (Uterine Artery Embolization) – bachadon arteriyalarining embolizatsiyasi. Bu usulda ingichka kateter orqali bachadon arteriyasiga maxsus embolizatsiya qiluvchi zarrachalar yuborilib, miomani qon bilan ta'minlaydigan tomirlar yopiladi. Natijada o'sma ishemiyaga uchrab, o'z-o'zidan kichrayadi. Reproductive funksiyani saqlab qolish imkonini beradi.

- 3-guruh (n=14): Ulipristal asetat qabul qilganlar. Bu dori mioma to'qimalaridagi hujayralar bo'linishini to'xtatadi va qon ketish holatini nazoratga oladi.

- 4-guruh (n=20): Robotik miomektomiya o'tkazilganlar – zamonaviy laparoskopik robotik tizimlar yordamida miomalar olib tashlangan. Operatsiya aniqligi yuqori, qon yo'qotish kam va tiklanish muddati qisqa bo'lgan.

Tadqiqot natijalari: - 1-guruh (HIFU): 3 oyda o'sma hajmi o'rtacha 45% kichraydi. Simptomlar 82% bemorlarda kamaydi.

- 2-guruh (UAE): 6 oyda mioma hajmi o'rtacha 50–60% gacha kamaydi. 75% bemor hayot sifati yaxshilanganini bildirdi.

- 3-guruh (Ulipristal): 3 oyda o‘sma hajmi 35–40% kamaydi, qon ketish holatlari 70% bemorda normallashti.

- 4-guruh (Robotik miomektomiya): Jarrohlikdan keyingi tiklanish muddati 4–6 kun. Qon yo‘qotish klassik jarrohlikka nisbatan 3 baravar kam. 90% bemor operatsiyadan mamnun.

Xulosa: Innovatsion davolash yondashuvlari – HIFU, UAE, ulipristal asetat va robotik miomektomiya – bachadon miomasini konservativ va minimal invaziv usulda samarali bartaraf etish imkonini beradi. Ular bemorning reproduktiv salomatligini saqlab qolish, tiklanish muddatini qisqartirish va hayot sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Har bir bemorga individual yondashuv tanlash muhimdir.